

Angor tumanida 90 nafar ishsiz fuqaroga takroriy ekin uchun yer maydoni ajratildi



Xabar berilganidek, viloyat bo'ylab g'alladan bo'shagan maydonlar takroriy ekin ekish va darmad olish uchun ishsiz, "daftarlар"da turgan fuqarolarga ajratib berilmoqda. Bugun ham Angor tumani "Chinobod" mahallasida "Zamin Angor klaster" MChJning g'alladan bo'shagan 18 hektar maydoni 20 sotixdan 90 nafar fuqaroga ajratib berildi.

Tadbirda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, klaster ishchilarini, nuroniylari va fuqarolar bilan uchrashdi. Ajratib berilayotgan yer maydonlari ekin ekishga tayyor holda shudgorlanib, "Bir kontur – bir mahsulot" tamoyili asosida hosildor urug'lari bilan ajratildi. Shuningdek, tumanning "Navshahar", "Chinobod" va "Do'stlik" mahallalarida istiqomat qiluvchi, ko'makka muhtoj, "daftarlар"da turgan 210 ta oilaga bug'doy tarqatildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)